

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN KOREYS TILI FANIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Ushbu spetsifikatsiyasi koreys tili fanidan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari o'qituvchilarini attestatsiyadan o'tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Maqsad

Baholash maqsadi – baholash jarayonida ishonchlilik, adolatlilik va shaffoflikni ta'minlash, talabgorlarning koreys tili fani bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

II. Me'yoriy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 572-son Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi “Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 17-sentabrdagi 572-son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi 692-son Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalar

1. Hangeul – yozuv tizimi va tovushlar
2. Leksika
3. Morfologiya
4. Sintaksis
5. Nutq madaniyati va uslubi
6. Matnni o‘qib tushunish

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

Mazmun soha	Kichik mazmun soha	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1. Hangeul – yozuv tizimi va tovushlar	Koreys yozuv tizimi – Hangeulning grafik tuzilishi, harflarning artikulyatsiyasi, fonetik birliklar va bo‘g‘in hosil bo‘lish qoidalarini bilish.	Hangeul harflarining tovush qiymatini to‘g‘ri aniqlaydi. Bo‘g‘in tuzish (받침/초성/중성) qoidalarini qo‘llaydi. Asosiy talaffuz qoidalarini (assimilyatsiya, kuchsizlanish, qisqarish va h.k.) to‘g‘ri qo‘llab, so‘z va gaplarni to‘g‘ri talaffuz qiladi.	10 %	4
2. Leksika	Koreys tilidagi asosiy lug‘aviy birliklarning ma‘nosi, ko‘p ma‘nolilik, sinonimiya, antonimiya va barqaror iboralarni bilish.	So‘zning asosiy va ko‘chma ma‘nolarini farqlaydi. Kontekstga mos lug‘aviy birlikni tanlay oladi. Barqaror iboralar (관용어, 속담) ma‘nosini anglaydi va qo‘llaydi.	20 %	8
3. Morfologiya	Koreys tilida so‘z yasalihi, fe‘l shakllari, zamonlar, qo‘shimchalar, egalik qo‘shimchalari, hurmat darajalari (높임법)ni bilish.	So‘z yasalihi modellari (어근 + 접사)ni farqlaydi. Fe‘l zamonlari va aspektlarini to‘g‘ri qo‘llaydi (현재/과거/미래, 진행, 완료). Grammatika qo‘shimchalarini (조사, 어미) mazmuniga mos qo‘llaydi. Egalik qo‘shimchalarini va hurmat darajalarini nutqda to‘g‘ri ishlatadi.	20 %	8

4. Sintaksis	Gap tuzilishi (SOV modeli), fe'lli va fe'lsiz gaplar, bog'lovchilar (연결어미), gap bo'laklari va ularning tartibini bilish.	Oddiy va murakkab gaplarni tuza oladi. Fe'lli gaplar va fe'lsiz gaplarni farqlaydi. Bog'lovchi morfemalarni (-고, -지만, -아서/어서, -니까 va h.k.) maqsadiga ko'ra qo'llaydi. Gap bo'laklari (ega, to'ldiruvchi, hol, kesim)ning o'rnini to'g'ri belgilaydi.	13 %	5
5. Nutq madaniyati va uslubi	Rasmiy, norasmiy, adabiy va og'zaki uslublar; hurmat darajalariga ko'ra uslubiy farqlash; nutq etiketi.	Rasmiy va norasmiy muloqot ko'rinishlarini farqlaydi. Politeness va speech levels (존댓말/반말)ni vaziyatga mos tanlaydi. Kommunikativ vaziyatga mos uslubdan foydalanadi (adabiy, og'zaki, rasmiy). Nutqda etiketa birliklarini to'g'ri qo'llaydi.	15 %	6
6. Matnni o'qib tushunish	Badiiy va ilmiy matnlarning mazmuniy tuzilishi, asosiy va ikkilamchi g'oyalarni farqlash, kontekst orqali ma'no chiqarish.	Matndan asosiy fikr va muhim dalillarni ajratadi. Kontekst asosida yangi so'z va iboralarning ma'nosini taxmin qiladi. Badiiy va ilmiy matnlarning uslubiy xususiyatlarini farqlaydi. Matnning maqsadi, ohangi va tuzilishini tahlil qiladi.	23 %	9
Jami			100	40

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan yondasha olish	25
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda qo'llay olish	50
3.	Mulohaza qilish	Muayyan matndagi fakt, dalil va me'yoriy holatlarni taqqoslash, tahlil qilish, matn mazmuniga muvofiq taxmin qilish, matn xronologiyasini aniqlash, xulosa(lar) chiqara olish	25

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 70 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha (umumiy vaqtning 15 %i miqdorida) vaqt qo'shib beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. 연세대학교 한국어학당. 연세 한국어 읽기 2. – 서울: 연세대학교 대학출판회원, 2015.
2. 연세대학교 한국어학당. 연세 한국어 읽기 3. – 서울: 연세대학교 대학출판회원, 2015.
3. 고려 대학교 한국어 문화 센터. Fun! Fun! Korean. 재미있는한국어 2. – 서울: 교보문고, 2010.
4. 고려 대학교 한국어 문화 센터. Fun! Fun! Korean. 재미있는한국어 3. – 서울: 교보문고, 2011.
5. 서울대학교 언어 교육원. 서울대학교 한국어 2. – 서울: (주) 문진미디어, 2014.
6. 서울대학교 언어 교육원. 서울대학교 한국어 2. – 서울: (주) 문진미디어, 2014.
7. 문화가 있는 한국어 읽기 1. – 서울: 상명대학교 국제언어문화교육원, 2019.
8. 문화가 있는 한국어 읽기 1. – 서울: 상명대학교 국제언어문화교육원, 2019.
9. 국립국제 교육원. 한국어 능력 시험 Topik I, II.
10. 비타민 한국어. 비타민 한국어2.
11. 서울대학교 언어 교육원. 서울대학교 한국어 2.